

Davlat Budjeti Ijrosini Boshqarishda Avtomatlashtirilgan Tizimining Ahamiyati

Gulyora Kasimova

TDIU, Budjet hisobi va g'aznachilik kafedrası, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi

Budjet nazorati va g'aznachilik yo'nalishi, 4-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat budjeti ijrosini boshqarishda g'aznachilikning avtomatlashtirilgan tizimining ahamiyati, ularning samaradorligi va mavjud muammolarni hal qilishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari keltiriladi hamda bir qancha iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari keltirildi.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, g'aznachilik, DMBAT, boshqaruv, axborot texnologiyalari, tizimni takomillashtirish.

Kirish

Davlat budjeti davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Budjet mablag'larining to'g'ri va samarali boshqarilishi davlatning barqaror rivojlanishi va aholining farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ammo, davlat budjetini boshqarish jarayonida ma'lumotlarning hajmi va murakkabligi oshib bormoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yangi bilimlarni ishlab chiqish uchun texnologiyalar, uslublar, texnik vositalarni ishlab chiqish bilan bog'liq axborot sanoati rivojlanish bosqichiga kirdi. Yangi asr bo'sag'asida avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari judayam rivojlanib bormoqda, chunki ular nafaqat tibbiyot, qurilish, ijtimoiy va harbiy sohalarida, balki, iqtisodiyot sohasida, jumladan, moliya, soliq, bank sohalarida ham keng va unumli qo'llanilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilikni faoliyat ko'rsatish amaliyoti va uni rivojlantirish yo'llari shuni ko'rsatadiki, byudjet mablag'larini samarali va tezkor boshqarishning kafolati davlatning moliyaviy axborot tizimi hisoblanadi. Bu tizim davlatning moliyaviy operatsiyalarini umumiy boshqarishning hisobotlar tuzish va hisob yuritishni o'z ichiga olgan kompyuterlashgan majmua tizimi ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunday tizimni yaratish uchun hozirgi zamon telekommunikatsiyalar, g'aznachilik organlarini yagona dastur bilan ta'minlash zarur, axborot vositalarini o'z vaqtida ishlash va barcha byudjet jarayoni qatnashchilarining axborotlarini ishlashini va almashishini tashkil qilish lozim.

Davlat budjeti ijrosini boshqarish – bu budjetni shakllantirish, mablag'larni taqsimlash, nazorat qilish va hisobotni tashkil etish jarayonidir. An'anaviy boshqaruv usullarida vaqt va resurslar samaradorligi past bo'lganligi sababli, zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarga ehtiyoj yuqori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2007 yildagi PQ-594-sonli "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori ham aynan davlat budjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan

nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budget daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan edi.[1]

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarishni isloh etish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri – davlat byudjeti g‘azna ijrosining avtomatlashtirilgan axborot tizimini (DMBAT)ni yaratish va takomillashtirish edi. Bu strategik vazifani bajarish maqsadida “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi” dasturiy majmuasi yaratildi va bugungi kunda u davlat boshqaruvining barcha pog‘onalarida byudjet ijrosini boshqarishning samarali va istiqbolli avtomatlashtirilgan axborot tizimiga aylanib bormoqda. DMBAT davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan dasturiy majmua hisoblanadi.

G‘aznachilik organlari bajaradigan vazifalarning xilma-xilligi va murakkabligi g‘aznachilik faoliyat ko‘rsatishining dastlabki kunlaridan boshlab o‘z ishida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini qo‘llashga yo‘naltirilishini belgilab berdi. Faqat ular yordamidagina byudjetni o‘z vaqtida va sifatli ijro etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlarda avtomatlashtirilgan tizimlar davlat budjeti ijrosini boshqarishda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Xususan, Yusupov M. “Davlat budjeti boshqaruvida avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish imkoniyatlari” nomli maqolasida DMBAT orqali davlat budjeti ijrosini optimallashtirish zarurati va imkoniyatlari haqida batafsil ma‘lumot beradi.[2]

Yapon olimlarining ta‘kidlashicha, axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni insonlarga ishonchli axborot manbaidan foydalanish boshqaruv, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarida axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta‘minlashga imkon beradi. Texnik vositalar kompleksi yordamida axborotlarni qayta ishlash texnologiyasi ayrim noinformatsion elementlar bilan manipulyatsiya qilish shakllangan tavsifni va elementlarni o‘rganilishini ta‘minlash, qayta ishlash, saqlash va uzatishni qulayligi uchun identifikatsiyalash zaruriyatini keltirib chiqaradi, shakllangan ko‘rinishda taqdim etilgan axborotga ma‘lumot nomi beriladi.[3]

Johnson R. avtomatlashtirilgan tizimlarning davlat boshqaruvidagi afzalliklari va qiyinchiliklarini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali moliyaviy oqimlarni kuzatish ancha shaffoflashadi. [4]

Kim S. va Park J. Janubiy Koreya tajribasi asosida byudjet jarayonlarini avtomatlashtirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Ular davlat boshqaruvining shaffofligi va fuqarolar ishonchini oshirish borasida muhim fikrlar keltirishgan.[5]

Estoniya hukumati tomonidan taqdim etilgan “Davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi” nomli manbada davlat budjeti tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirish bo‘yicha qimmatli tajriba bayon etilgan. Bu tajribada kibexavfsizlikning kuchayishi ham asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.[6]

Tahlil va natijalar

DMBATni amalda qo‘llash quyidagi vazifalarni echish imkonini beradi:

- g‘aznachilikning turli darajalarida byudjet ma‘lumotlari bilan ishlashni markazlashtirish;
- hujjatlar bilan ishlash va ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda talab qilinadigan tezkorlikni ta‘minlash;
- hisobraqamlardagi qoldiqlarga muvofiq moliya resurslariga bo‘lgan kelgusi ehtiyojlarni prognozlashtirish va optimallashtirish;
- byudjet jarayonlarini yanada samarali boshqarishni ta‘minlash;
- mablag‘larni maqsadli sarflanishini tezkor nazoratini amalga oshirish;

- apparat ishlarini samaradorligi oshirish, xatolarni minimallashtirish, apparatni saqlash xarajatlarini qisqartirish;
- davlat boshqaruvidagi vakolat berilgan shaxslarni byudjet holati to'g'risidagi tezkor axborotlar bilan ta'minlash.

Ushbu tizimning budjet mablag'larining taqsimoti va nazorati, ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash, samaradorlikni oshirish orqali xatoliklarni kamaytirishga juda katta yordam berdi va davlat budjeti ijrosini boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimlar (DMBAT) quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

Ish jarayonini optimallashtirish: Xodimlarning ish hajmini kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish.

Aniqlik darajasini oshirish: Budjet mablag'lari harakatini aniqlik bilan kuzatish.

Ochiq boshqaruv tizimi: Fuqarolar uchun davlat budjeti haqida ma'lumotlarning ochiq va shaffof bo'lishini ta'minlash.

Samaradorlik: Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash orqali tezkor va aniq hisob-kitob qilish imkoniyati yaratiladi.

Shaffoflik: Budjet mablag'larining sarfini kuzatish osonlashadi.

Nazoratning kuchayishi: Mavjud muammolar va xatoliklarni real vaqt rejimida aniqlash imkoniyati.

Resurslarni tejash: Qog'oz hujjatlar bilan ishlashni kamaytirish va inson resurslarini maqbul taqsimlash.


Axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish: Zamonaviy dasturiy ta'minot va server infratuzilmasidan foydalanish.

Xavfsizlikni oshirish: Kiberxavfsizlik tizimlarini kuchaytirish.

Ma'lumotlar integratsiyasi: Budjet jarayonlariga oid barcha ma'lumotlarni yagona platformaga birlashtirish.

Kadrlarni qayta tayyorlash: Davlat xizmatchilarini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish.

Davlat budjeti ijrosiga nazar soladigan bolsak, daromadlarini prognozlashtirish hisob-kitoblarida 2024-yil Davlat budjeti daromadlari kutilmalari, iqtisodiy tarmoqlarning o'sish sur'atlari, tashqi iqtisodiy omillar, asosiy xom-ashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash hajmlari, berilgan soliq imtiyozlari muddatlarining tugashi ham hisobga olingan. 2025-yil uchun Davlat budjeti daromadlari prognozini ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olingan: – makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognoziga asosan import hajmining oshishi (41,3 mlrd AQSH dollaridan 46,2 mlrd AQSH dollariga) ko'zda tutilmoqda; – jahon bozoridagi oltin va mis narxlariga "ehtiyotkorlik" tamoyili asosida yondashilgan; – daromadlarning salmoqli qismini tashkil qiluvchi asosiy mahsulotlar va aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning ishlab chiqarish hajmlari (alkogol mahsulotlari 31,9 mln dall, tamaki 12,6 mlrd dona, tabiiy gaz 42,4 mlrd metr kub) yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tadbirlari doirasida inobatga olingan; – asosiy daromad turlari bo'yicha soliq solish bazalari prognozlari Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlari yordamida hisob-kitob qilingan. Shulardan kelib chiqib, 2025-yil uchun Davlat budjeti daromadlari 308,5 trln so'm yoki YIMga nisbatan 18,9 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda. Kelgusi yilda budjet daromadlari 2024-yilgi kutilayotgan daromadlar miqdoriga nisbatan 14 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

1-rasm. 2025-yil Davlat budjeti daromadlari, trln.so'm.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 100,3 trln so'm yoki 2024-yilgi kutilayotgan tushumlarga nisbatan 12,8 trln so'mga (14,6 foiz) ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. 2025-yilda bevosita soliqlar Davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i 32,5 foizni (2024-yilda 32,3 foiz kutilmoqda) tashkil etadi.[7]

Aynan DMBAT dasturiy kompleksi davlat budjeti daromadlarini prognoz qilishda juda katta rol o'ynaydi. Chunki, ushbu dasturiy majmua orqali monitoring qilish imkoniyati yaratildi va budjetning har bir so'mi maqsadga muvofiq, samarali taqsimlanishi ustidan nazorat olib borilyabdi.

Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimini (DMBAT) tashkil etishda quyidagilar hisobiga byudjet jarayonlarini boshqarishning samaradorligini oshirish mumkin:

- byudjet jarayonlari ijrosida qaror qabul qiladigan shaxs-larni to'liq, ishonchli, tezkor va detallashtirilgan axborotlar bilan ta'minlash;
- moliya resurslarini tezkor boshqarishda axborotlar bilan qo'llab-quvvatlash;
- byudjet ko'rsatkichlarini shakllantirishda ishonchliligini va tezkorligini oshirish;
- byudjet ijrosini prognozlashtirishning ishonchliligini oshirish;
- byudjet tizimining turli darajalarida mablag'larni maqsadli ishlatilishi va byudjet ijrosini samarali nazoratini ta'minlash;
- byudjet tizimining turli darajalarida byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirishda tezkorlikni oshirish.

2-jadval. Davlat budjeti xarajatlari, trln.so'm.

	Ijro		Kutilma	Prognoz		
	2022	2023	2024	2025	2026	2027
Xarajatlar, jami	236,7	281,1	317,7	344,6	395,6	453,7
1 Ijtimoiy soha	117,7	137,2	154,4	178,2	196,6	225,5
Ta'lim	50,3	61,2	71,1	84,3	98,7	112,9
Sog'liqni saqlash	27,3	31,1	34,4	41,3	46,7	53,6
Madaniyat	2,3	2,7	3,1	3,8	4,3	4,9
Sport	2,0	2,6	3,0	3,3	3,5	3,8
Fan	1,4	1,8	2,1	2,3	2,5	2,8
Ijtimoiy nafaqalar	19,4	19,2	17,3	17,3	18,6	21,6
Pensiya jamg'armasiga transfertlar	11,1	13,8	16,0	18,5	12,0	10,0
Ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badal va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash	1,0	1,1	1,5	2,5	2,8	3,2
2 Iqtisodiyot xarajatlari, shundan	32,3	42,2	40,5	39,2	43,7	46,2
Suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	7,1	8,7	10,7	9,7	9,9	10,2
Obodonlashtirish	4,8	4,7	4,4	4,5	4,3	4,8
Tabiiy gaz narxlaridagi tafovutni qoplash	6,7	18,0	9,5	7,0	6,5	6,9
Elektr energiyasi narxlaridagi tafovutni qoplash	-	-	2,5	0,5	0,3	-
Issiqlik korxonalariga subsidiyalar	0,9	1,7	4,2	4,8	4,2	4,7
3 Rivojlantirish dasturlari	35,1	33,6	32,4	27,4	39,0	46,6
Markazlashgan investitsiya	23,4	17,4	20,4	16,2	25,0	30,0
Tashabbusli budjetlashtirish	2,5	4,0	5,8	6,0	8,0	10,0
Prezident topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari	2,6	3,3	3,5	2,5	3,0	3,0
Tadbirkorlik faoliyati hamda aholining barcha qatlamiga yashash va dam olishi uchun qulay sharoit yaratish xarajatlari	-	-	-	1,0	1,0	1,0
Tanlab olingan tumanlarni jadal kompleks rivojlantirish loyihalari uchun mablag'lar	-	-	0,5	0,5	0,5	0,5
4 Davlat boshqaruvi, hokimiyati, adliya, prokuratura va sud organlari	12,6	15,9	16,8	18,6	20,5	22,9
5 Zaxira jamg'armalari	1,8	1,7	2,1	1,8	1,7	1,7
6 Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlari	3,5	8,2	16,4	21,1	30,3	33,8
7 Boshqa xarajatlar	25,5	40,7	53,3	56,3	61,8	75,0

Izoh: Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini, shuningdek ayrim xizmatlar turlari bo'yicha tariflarni oshirish bilan bog'liq mablag'lar tegishli sohalariga taqsimlangan.

Davlat budjeti jami xarajatlari 2025-yilda YIMga nisbatan 2022-yilgi 23,8 foizdan 21,1 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda. 2025-yilda Davlat budjeti xarajatlari 344,6 trln so'm miqdorida yoki 2024-yil uchun kutilayotgan ijroga nisbatan 8,5 foiz ko'p mablag'lar ajratilishi prognoz qilingan. Keyingi yilda ham xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolingani bo'lib, Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismi yoki 52 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

DMBAT tizimi yordamida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, tizim xavfsizligini ta'minlash va integratsiya jarayonlarini soddalashtirish orqali yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Xulosa

Davlat budjeti ijrosini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi. DMBAT tizimi yordamida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, tizim xavfsizligini ta'minlash va integratsiya jarayonlarini soddalashtirish orqali yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, byurokratiya darajasini kamaytiradi va fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, ochiqlik, shaffoflik, tezkorlik, natijadorlikni hamda budjet mablag'larini samarali taqsimlaydi.

DMBATni qo'llanilishi yagona huquqiy, uslubiy va axborot makon asosida byudjet jarayonlari chegarasida amalga oshiriladigan ishlarni kompleks avtomatlashtirish, turli bosqichdagi g'aznachilik organlarining o'zaro harakatlarini ta'minlash va muvofiqlashtirish, ularni tezkor axborotlar bilan, asosiy operatsiyalarni avtomatlashtirish, turli byudjet tashkilotlarini va bo'limlarni faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni berish va aloqa tizimini tashkil etishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-1139941>
2. Yusupov, M. (2022). "Davlat budjeti boshqaruvida avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish imkoniyatlari." *O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 3(45), 12-18.
3. G.Kasimova, A.Xaydarov. *G‘aznachilikning dasturiy komplekslari. (Darslik).* – T.: «Nihol print» OK, 2021. – 376 b.
4. Johnson, R. (2020). "E-Government and Public Finance: Automation in Budget Management." *International Journal of Public Administration*, 43(4), 567-580.
5. Kim, S., & Park, J. (2018). "Smart Budgeting Systems in South Korea: Lessons for Developing Countries." Seoul: KIPA Publications.
6. Government of Estonia. (2021). *E-Estonia: How Digital Solutions Make a Difference.* Tallinn: Government Office of Estonia.
7. *Budjetnoma. 2025-2027.*